va institutsional boshqaruvni qayta shakllantirishdagi rolini asoslab beradi. S. Marginson esa universitet reytinglarining ilmiy faoliyat, akademik reputatsiya hamda global ilmiy hamkorlikni rag'batlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. A. Van Raan universitetlarni reytinglash jarayonidagi metodologik muammolar va ilmiy natijalarni baholash mezonlari bilan bog'liq konseptual masalalarni yoritadi.

Shuningdek, J. Salmi va P. Altbach tadqiqotlarida jahon darajasidagi universitetlarni shakllantirish omillari, jumladan, inson kapitalini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar sifati va institutsional boshqaruvning samaradorligi muhim ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Smart universitet konsepsiyasi esa V. Uskov va hamkorlari tomonidan ta'lim muhitini raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlariga sun'iy intellekt va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali universitet faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan model sifatida talqin qilinadi.

Mahalliy tadqiqotchilar Q. Abduraxmanov hamda S. G'ulomovlarning ilmiy ishlarida inson kapitalini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va smart universitetlarni boshqarish masalalari yoritilgan. Ushbu ilmiy qarashlar oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv, reyting ko'rsatkichlari hamda raqamli transformatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim tizimining murakkab, ko'p o'lchovli va dinamik tabiatini inobatga olgan holda tizimli yondashuvga asoslangan ilmiy-tahliliy metodlar majmuasidan foydalanildi. Davlat tashkilotlari faoliyati hamda ulardagi inson resurslarini boshqarish mexanizmlarini chuqur o'rganish maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

Birinchi, qiyosiy-institutsional tahlil (comparative institutional analysis) usuli yordamida yetakchi xalqaro reyting agentliklari (QS, THE) metodologiyasidagi asosiy indikatorlar milliy oliy ta'limni strategik boshqarish instrumentlari hamda normativ-huquqiy bazasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur usul global standartlar (masalan, akademik erkinlik, tadqiqot ta'siri) hamda milliy boshqaruv amaliyotlari o'rtasidagi institutsional farqlarni aniqlashga xizmat qildi.

Ikkinchi, oliy ta'lim muassasalarining turli boshlang'ich sharoitlari va resurslarini hisobga olgan holda klasterlash usuli (clustering method) qo'llanildi. Ushbu jarayonda model ma'lumotlari asosida universitetlar ularning ilmiy salohiyati, raqamli infratuzilmasi (smart komponentlar) hamda xodimlarni boshqarish samaradorligiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Mazkur yondashuv har bir klaster uchun tabaqalashtirilgan va moslashuvchan strategik rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Uchinchi, davlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv vertikasi va qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish uchun iyerarxik modellashtirish (hierarchical modeling) usulidan foydalanildi. Ushbu jarayonda Vazirlik – Rektorat – Fakultet – Kafedra (xodim) tizimidagi axborot oqimi, vakolatlar taqsimoti hamda xodimlar karyerasini boshqarish jarayonlari mantiqiy va matematik modellashtirish asosida tahlil qilindi.

To'rtinchi, benchmarking usuli orqali rivojlangan davlatlarning (Singapur, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya) smart universitetlarni shakllantirish hamda xalqaro reytinglarda yetakchi o'rinlarni egallash tajribasi o'rganildi. Shuningdek, tadqiqotning axborot bazasini kengaytirish maqsadida hujjatlar tahlili (document analysis) amalga oshirilib, universitetlarning strategik rivojlanish dasturlari hamda xodimlarni baholash mezonlari (KPI) o'rganildi.

Tahliliy jarayon strategik menejment freymvorklari (strategic management frameworks) doirasida olib borilib, sabab-oqibat bog'lanishlarini (cause-effect logic) aniqlashga yo'naltirildi. Statistika ma'lumotlarining ayrim jihatlari ochiq manbalarda to'liq aks etmaganligi sababli, institutsional samaradorlikni baholash uchun ilmiy tahlildan o'tkazilgan hamda mahalliy sharoitga moslashtirilgan model ma'lumotlari (model data) dan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan metodologik tahlillar natijasiga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarining global reytinglardagi ishtiroki ularning ichki institutsional salohiyati hamda smart boshqaruv tizimining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, amaldagi milliy boshqaruv instrumentlari va xalqaro reyting indikatorlari o'rtasida ma'lum institutsional nomutanosibliklar (institutional gaps) mavjudligi ham kuzatildi.

Mazkur nomutanosibliklar oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimlarini xalqaro reyting metodologiyalari bilan uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan ushbu tafovutlar tizimli ravishda umumlashtirilib, 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval. Xalqaro reyting indikatori va milliy strategik boshqaruv instrumentlarining qiyosiy tahlili

Tahlil yo'nalishlari	Xalqaro reyting tizimlari (QS, THE) talablari	Milliy strategik boshqaruv amaliyoti	Institutsional va konseptual nomutanosiblik
Strategik maqsad	Tadqiqotning global ta'siri (Research impact) va akademik reputatsiya	Me'yoriy hujjatlar ijrosini ta'minlash hamda o'quv jarayonini nazorat qilish	Natijadorlik (Impact) yondashuvi va jarayon nazorati (Process compliance) o'rtasidagi farq
Xodimlar karyerasi va inson kapitali	Ilmiy erkinlik, iste'dodli tadqiqotchilarni jalb qilish, ilmiy natijalar asosida rag'batlantirish	Yuqori o'quv yuklamasi, ish stajiga asoslangan mehnat haqi hamda formal malaka oshirish tizimi	Meritokratiya va smart karyera tamoyillari hamda stajga asoslangan boshqaruv yondashuvlari o'rtasidagi tafovut
Raqamli muhit va infratuzilma	Ochiq ma'lumotlar bazalari, smart kampus, raqamli kutubxonalar, sun'iy intellekt asosidagi tahlillar	Hujjat aylanishining an'anaviy shakllari, lokal hisobot tizimlari hamda raqamli tizimlarning qisman integratsiyalashuvi	Integratsiyalashgan smart tizimlar va alohida ishlaydigan elektron tizimlar o'rtasidagi nomutanosiblik
Ilmiy faoliyatni baholash	Scopus va WoS bazalaridagi iqtiboslar soni (Citations), xalqaro hammualliflik	Chop etilgan maqolalar soni, mahalliy nashrlar va konferensiyalar	Ilmiy sifat va global e'tirof hamda miqdoriy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut
Moliyaviy resurslar	Ilmiy grantlar, sanoat bilan hamkorlikdan tushumlar, endowment fondlari	Davlat budjeti asosiy moliyalashtirish manbai hamda shartnoma to'lovlari	Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari va markazlashgan budjet tizimi o'rtasidagi farq

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, milliy boshqaruv amaliyoti asosan ma'muriy resurslarni boshqarishga ("kirish") yo'naltirilgan bo'lsa, xalqaro reyting tizimlari ta'lim va ilm-fanning iqtisodiyot hamda jamiyat rivojiga qo'shayotgan real hissasini ("ta'sir") baholashga alohida e'tibor qaratadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida xodimlar karyerasini boshqarish tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yosh olimlarning ilmiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar universitetlarning ilmiy natijadorligi hamda xalqaro reyting ko'rsatkichlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Aniqlangan ushbu omillarni tizimli ravishda takomillashtirish maqsadida smart universitet konsepsiyasiga asoslangan «Kirish–Jarayon–Chiqish» (Input–Process–Output) integral boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Mazkur model xalqaro reyting talablari va universitetlarning kundalik operatsion faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash hamda strategik boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Reytingga yo'naltirilgan universitet boshqaruvining «Kirish–Jarayon–Chiqish» modeli

Tizim bosqichlari	Smart universitet komponentlari	Strategik boshqaruv harakatlari	Reyting metrikalariga ta'siri (KPI)
KIRISH (Input / Resources)	Intellektual kadrlar, raqamli infratuzilma, moliyaviy resurslar	Xodimlarni tanlashning smart tizimi (AI-recruitment), moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish	Xorijiy professorlar ulushi, talaba–o'qituvchi nisbati, ilmiy daromadlar
JARAYON (Process / Governance)	Smart kampus, LMS, elektron karyera monitoringi, akademik mobillik	Individual karyera trayektoriyalarini ishlab chiqish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, ochiq fan (Open Science) muhitini rivojlantirish	Ta'lim sifati ko'rsatkichlari, xorijiy talabalar ulushi, ilmiy tadqiqotlar faolligi indeksi
CHIQUISH (Output / Results)	Tijoratlashtirilgan patentlar, yuqori impakt-faktorli maqolalar, raqobatbardosh bitiruvchilar	Ilmiy nashr faolligini natijadorlik asosida rag'batlantirish, universitet spin-off kompaniyalarini tashkil etish	Iqtiboslar soni (Citations per faculty), Scopus va WoS bazalaridagi maqolalar, bitiruvchilarning bandlik darajasi
TA'SIR (Impact / Value)	Hududiy iqtisodiy rivojlanishga hissa, global ilmiy tarmoqlarga integratsiya	Mahalliy hokimiyat va biznes bilan smart konsorsiumlar, xalqaro PR strategiyalarini rivojlantirish	Akademik reputatsiya (Academic Reputation), ish beruvchilar o'rtasidagi obro' (Employer Reputation)




Universitetlarning ushbu model asosida transformatsiya qilinishi ularning strategik pozitsiyasini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini beradi. Quyidagi klaster diagrammasida turli toifadagi muassasalarning reyting komponentlari bo'yicha joylashuvi aks ettirilgan.

Klaster diagrammasi universitetlarni «Smart infratuzilma va raqamli boshqaruv» (gorizontal o'q) hamda «Ilmiy tadqiqot va akademik reputatsiya» (vertikal o'q) mezonlari bo'yicha tabaqalashtiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy oliy ta'lim muassasalarining muayyan qismi an'anaviy tarzda o'qitishga yo'naltirilgan rivojlanish modelida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish hamda xalqaro reyting tizimlarida yuqori natijalarga erishish uchun resurslarni raqamli transformatsiyani jadallashtirish va ilmiy tadqiqot muhitini rivojlantirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayon universitetlarning rivojlanish yo'nalishini klaster diagrammasidagi yuqori samaradorlik segmentiga yo'naltirishga xizmat qiladi hamda strategik muvofiqlashuv (strategic alignment) jarayonlarini jadallashtirishga imkon yaratadi (1-rasm).

OTMLar Klaster Diagrammasi: Strategik Siljish



1-rasm. OTMLar klaster diagrammasi — strategik siljishlar

Institutsional samaradorlikning tabaqalashuvini (performance differentiation) sonli ko'rsatkichlar orqali ifodalash maqsadida model ma'lumotlari asosida uch xil toifadagi universitetlarning faoliyat indikatorlari baholandi. Olingan natijalar smart komponentlarning oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligiga ko'rsatayotgan ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi (3-jadval).


3-jadval. Institutsional samaradorlik indikatorlari (model ma'lumotlari asosida)

Universitet toifasi va boshqaruv modeli	Smart muhit va raqamlashtirish indeksi (0–1)	Xodimlar karyerasini boshqarish samaradorligi (ball, maks. 100)	Tadqiqot ta'siri va iqtiboslik darajasi (Citations)	Global reytingga kirish ehtimolligi
A toifa (Smart tadqiqot universiteti)	0.88	85.4	Yuqori (>5.0 bir xodimga)	Yuqori (Top–1000 ga kirish >80%)
B toifa (Modernizatsiyalanayotgan hududiy OTM)	0.52	48.2	O'rtacha (1.5–3.0)	O'rta (mintaqaviy reytinglarda)
V toifa (An'anaviy sohaviy institut)	0.25	22.5	Past (<1.0)	Past (milliy reyting darajasida)

3-jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, smart muhitni shakllantirgan hamda xodimlar karyerasini boshqarishga tizimli investitsiyalar yo'naltirgan «A toifa» dagi oliy ta'lim muassasalarining tadqiqot ta'siri va reyting ko'rsatkichlari nisbatan yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida universitetlarning ilmiy salohiyati hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, bunday transformatsiyani samarali amalga oshirish uchun davlat tashkilotlaridagi boshqaruv tizimlarini zamonaviy strategik boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda iyerarxik boshqaruv tizimini optimallashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda smart boshqaruv elementlarini joriy etish zarur hisoblanadi.

Quyidagi diagrammada smart oliy ta'lim tizimining yangilangan iyerarxik boshqaruv modeli keltirilgan (2-rasm).




2-rasm. OTMlarda mavjud an'anaviy boshqaruv tizimi va taklif etilayotgan smart iyerarxiya modeli

An'anaviy boshqaruv tizimida qarorlar yuqoridan pastga yo'naltirilgan (top-down) qat'iy direktiv tarzda qabul qilinadi. Taklif etilayotgan smart iyerarxiya modeli esa markazlashtirish darajasini maqbul darajada kamaytirishga asoslangan markazsizlashtirish (decentralization) tamoyiliga tayanadi. Mazkur yondashuvda Vazirlik asosan strategik yo'nalishlarni belgilash hamda resurslar bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

Operatsion qarorlar qabul qilish, xodimlarni ishga qabul qilish, karyera trayektoriyalarini shakllantirish hamda ilmiy grantlarni taqsimlash vakolatlari bevosita quyi bo'g'inlarga — fakultetlar va ilmiy laboratoriyalarga beriladi. Bunday yondashuv universitet ichida boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshiradi, tranzaksiyon xarajatlarni kamaytiradi hamda akademik erkinlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim muassasalarining ilmiy faoliyati va institutsional samaradorligi ortib, ularning xalqaro reyting tizimlaridagi pozitsiyalarini mustahkamlash imkoniyati kengayadi.

Nihoyat, reytingga yo'naltirilgan strategik boshqaruvning yaxlit konseptual ko'rinishi sifatida smart universitetning integratsiyalashgan boshqaruv modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

SMART-UNIVERSITET INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODEL



3-rasm. Smart universitetning integratsiyalashgan boshqaruv modeli



Mazkur integratsiyalashgan model universitet boshqaruvining uzluksiz siklini aks ettiradi. Unda muassasaning strategik rejalari (missiya, vizyon) reyting metrikalari (KPI) bilan uzviy bog'langan holda tasvirlangan. Modelning markazida «ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv» (data-driven governance) tamoyili yotadi. Ya'ni smart universitetda qaror qabul qilish jarayonlari — xodimni lavozimga ko'tarishdan tortib, qaysi tadqiqot loyihasini moliyalashtirishgacha — sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili asosida, xolis va shaffof tarzda amalga oshiriladi.

Olingan natijalar global tajriba hamda milliy boshqaruv amaliyoti o'rtasidagi farqlarni ilmiy jihatdan kengroq muhokama qilish uchun muhim asos yaratadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishgan universitetlar (masalan, MIT, Oxford yoki Osiyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari — National University of Singapore (NUS) va Singapore University) inson resurslarini boshqarishning yuqori darajada moslashuvchan va raqobatbardosh tizimlariga ega [9, 2]. Bunday muassasalarda professor-o'qituvchilar davlat xizmatchisi sifatida emas, balki mustaqil tadqiqotchi va bilimlar iqtisodiyotining muhim drayveri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham xodimlarning ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish va ularning tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Smart universitet konsepsiyasiga bosqichma-bosqich o'tish orqali ma'muriy jarayonlarning bir qismini raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirish hamda professor-o'qituvchilarga ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun kengroq imkoniyatlar yaratish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, reyting ko'rsatkichlariga haddan tashqari yo'naltirilgan yondashuv «Goodhart qonuni» ga muvofiq ayrim nojo'ya oqibatlarini yuzaga keltirishi mumkin [3, 4]. Masalan, muassasalar ilmiy sifatni oshirish o'rniga iqtiboslar sonini sun'iy ravishda ko'paytirish yoki past sifatli nashrlarda maqolalar chop etishga intilishlari ehtimoli mavjud.

Bunday holatlarning oldini olish uchun universitetlarda akademik halollik tamoyillarini mustahkamlash, sifatni ta'minlash mexanizmlarini (quality assurance mechanisms) rivojlantirish hamda plagiatni aniqlashga qaratilgan zamonaviy smart tizimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarini reytingga yo'naltirilgan strategik boshqaruv asosida rivojlantirish ularning tashkiliy tuzilmasini yangilashni talab qiladi [5, 6]. Bu jarayonda xodimlar karyerasini boshqarish tizimi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi vatandosh tadqiqotchilarni jalb qilish uchun nafaqat munosib moliyaviy rag'batlantirish, balki zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy erkinlik hamda grantlardan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash zarur.

Bunday yondashuv oliy ta'lim muassasalarida institutsional avtonomiya va barqaror rivojlanish (institutional sustainability) tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy universitetlar mahalliy iqtisodiy rivojlanish markazlariga aylanishi mumkin. Ular mahalliy biznes subyektlari bilan hamkorlikda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Smart universitet konsepsiyasi asosida reyting va raqobatbardoshlikni integral boshqarish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

Institutsional paradigmani yangilash. Oliy ta'lim tizimida raqobatbardoshlikni oshirish uchun an'anaviy byurokratik boshqaruvdan ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) hamda natijaga yo'naltirilgan (performance-based) smart boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o'tish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Inson kapitali va karyera boshqaruvining ustuvorligi. Reyting ko'rsatkichlarining o'sishi professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati bilan bevosita bog'liq. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida xodimlar karyerasini boshqarishning meritokratiya tamoyillariga asoslangan, ochiq va raqamli boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avtonomiya va detsentralizatsiyani rivojlantirish. Smart universitet modeli boshqaruv jarayonlarida maqbul darajadagi markazsizlashtirishni nazarda tutadi. Fakultet va kafedralarga moliyaviy, akademik hamda tashkiliy mustaqillik berilishi universitetlarning innovatsion rivojlanishi va xalqaro reytinglardagi pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

«Sifat miqdordan ustun» tamoyilini qo'llash (Quality over Quantity). Ilmiy faoliyatni baholashda maqolalar soniga emas, balki ularning ilmiy sifati va xalqaro e'tirofiga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shu nuqtai nazardan, xodimlarni yuqori impakt-faktorli hamda Scopus va Web of Science (WoS) bazalaridagi maqolalari, shuningdek tijoratlashtirilgan patentlari uchun differensial moliyaviy rag'batlantirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Smart infratuzilmani rivojlantirish. Ta'lim va boshqaruv jarayonlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan ERP (Enterprise Resource Planning) hamda LMS (Learning Management System) platformalarini shakllantirish va ularni xalqaro ma'lumotlar bazalari bilan sinxronlashtirish oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi.



Glokal (Glocal) strategik yondashuvni qo'llash. Universitetlar bir vaqtning o'zida global ta'lim tarmoqlariga integratsiyalashishi hamda mahalliy iqtisodiyotning dolzarb muammolarini hal etishga xizmat qilishi zarur. Bunday yondashuv hududiy innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish va iqtisodiy qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Reytinglarni baholash vositasi sifatida qo'llash. Reyting tizimlari oliy ta'lim muassasasining yakuniy maqsadiga aylanishi emas, balki ta'lim sifati, ilmiy salohiyat hamda boshqaruv samaradorligini monitoring qilishga xizmat qiluvchi diagnostik instrument sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Muallifning konseptual hissasi shundan iboratki, mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun xalqaro reyting talablari, smart texnologiyalar hamda xodimlar karyerasini boshqarish mexanizmlarini o'zaro integratsiya qiluvchi yagona «Kirish–Jarayon–Chiqish» uzluksiz boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv davlat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish hamda milliy universitetlarning global ta'lim bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Hazelkorn, E. (2015). Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence (2nd ed.). Palgrave Macmillan. <https://link.springer.com/book/10.1057/9781137446671>
3. Marginson, S. (2014). University rankings and social science. *European Journal of Education*, 49(1), 45–59. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/ejed.12061>
4. Van Raan, A. F. J. (2005). Fatal attraction: Conceptual and methodological problems in the ranking of universities. *Scientometrics*, 62(1), 133–143. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11192-005-0008-6>
5. Locke, W., et al. (2008). The Methodology of International University Rankings. Higher Education Funding Council for England. <https://dera.ioe.ac.uk/id/eprint/8497/>
6. Shin, J. C., & Toutkoushian, R. K. (2011). *University Rankings: Theoretical Basis, Methodology and Impacts on Global Higher Education*. Springer. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-007-1116-7>
7. Altbach, P. G., & Salmi, J. (2011). *The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities*. Washington, DC: World Bank.
8. Rauhvargers, A. (2013). *Global University Rankings and Their Impact: Report II*. European University Association.
9. Salmi, J. (2009). *The Challenge of Establishing World-Class Universities*. Washington, DC: World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/2600>
10. Uskov, V. L., Bakken, J. P., Howlett, R. J., & Jain, L. C. (2015). *Smart Universities: Concepts, Systems, and Technologies*. Springer.
11. Abduraxmanov, Q. X. (2019). *Inson kapitali va oliy ta'lim samaradorligi*. Toshkent: Iqtisodiyot.
12. G'ulomov, S. S., & Abdullayev, A. M. (2018). *Raqamli iqtisodiyot va smart universitetlar boshqaruvi*. Toshkent: Moliya.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>